

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

ABDULLA ORIPOV POETIK TAFAKKURI RIVOJIDA FOLKLORNING AHAMIYATI

Ravshonbekova Gulmira
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
UrDU Filologiya va san’at fakulteti
2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ijodiy merosining shakllanishida xalq og‘zaki ijodining ta’siri tahlil etiladi. Shoirning she’riy asarlarida xalq qo‘shiqlari, maqollar, dostonlar va folklor elementlarining aks etishi, ularning poetik tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodining milliy tafakkur va adabiy merosni boyitishdagi ahamiyati ham ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Oripov, xalq og‘zaki ijodi, folklor, poetik tafakkur, she’riyat, milliy meros, badiiy uslub.

РОЛЬ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА В РАЗВИТИИ ПОЭТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ АБДУЛЛЫ ОРИПОВА

Аннотация. В данной статье анализируется влияние народного устного творчества на формирование творческого наследия Народного поэта Узбекистана Абдуллы Орипова. Рассматривается отражение народных песен, пословиц, дастанов и фольклорных элементов в его поэтических произведениях, а также их роль в развитии поэтического мышления. Кроме того, подчеркивается значение народного устного творчества в обогащении национального мышления и литературного наследия.

Ключевые слова: Абдулла Орипов, народное устное творчество, фольклор, поэтическое мышление, поэзия, национальное наследие, художественный стиль.

THE ROLE OF FOLK ORAL CREATIVITY IN THE DEVELOPMENT OF ABDULLA ORIPOV’S POETIC THINKING

Abstract. This article analyzes the influence of folk oral creativity on the formation of the creative heritage of Uzbekistan’s People’s Poet, Abdulla Oripov. It examines how folk songs, proverbs, epics, and folklore elements are reflected in his poetic works and their role in the evolution of poetic thinking. Additionally, the article highlights the significance of folk oral creativity in enriching national thought and literary heritage.

Keywords: Abdulla Oripov, folk oral creativity, folklore, poetic thinking, poetry, national heritage, artistic style.

KIRISH

Adabiyot insoniyat tafakkurining muhim ifodalaridan biri bo‘lib, millatning tarixiy xotirasi va madaniy merosining ajralmas qismidir. Har bir ijodkorning adabiy faoliyati muayyan an‘analardan, tarixiy jarayonlar va madaniy muhit bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Shu jihatdan, o‘zbek adabiyotining yuksak cho‘qqilaridan biri bo‘lgan Abdulla Oripov ijodining manbaalarini o‘rganish muhim ilmiy masalalardan biridir. Shoirning badiiy tafakkuri va poetik olami xalq og‘zaki ijodining chuqur ta’siri ostida rivojlangan bo‘lib, uning asarlarida milliy ruh, folklor motivlari va xalqona ifoda vositalari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Xalq og‘zaki ijodi asrlar davomida o‘zbek xalqining estetik didi, ma’naviy qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettirib kelgan. O‘zbek folklorida xalq donishmandligi, poetik tafakkurining ifodasi bo‘lmish maqollar, topishmoqlar, dostonlar, qo‘shiqlar va rivoyatlar mujassamdir. Abdulla Oripov ana shu bebaho badiiy an‘analardan ilhomlangan holda o‘z ijodida xalqona tasvir vositalaridan samarali foydalangan. Uning she’rlarida xalq qo‘shiqlariga xos samimiylik, xalq maqollari va iboralari bilan uyg‘unlashgan poetik ifodalar, dostonlardagi epik tasvirlarga yaqin badiiy usullar kuzatiladi.

Maqolada Abdulla Oripovning poetik tafakkuri shakllanishida xalq og‘zaki ijodining o‘rni tahlil qilinadi. Shoir she’riyatida folklor elementlarining aks etishi, ularning poetik tizimdagi funksiyasi hamda badiiy-estetik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodining nafaqat shoir ijodiy uslubini boyitish, balki milliy adabiyot taraqqiyotidagi umumiy roli ham tadqiq qilinadi. Ushbu masala o‘zbek adabiyotshunosligi doirasida xalq an‘analari va zamonaviy poetik tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib berish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Abdulla Oripov ijodida xalq og‘zaki ijodining ta’siri o‘zbek adabiyotshunosligida muhim tadqiqot mavzularidan biri bo‘lib kelmoqda. Tadqiqotchilar shoirning poetik tafakkuri shakllanishida folklor elementlarining o‘rni va ahamiyatini turli jihatlardan tahlil qilganlar. Masalan, A. Davlatova o‘zining *“Abdulla Oripov she’riyatida poetik tafakkur tadriji”* nomli doktorlik dissertatsiyasida shoirning poetik tafakkur shakllanishida xalq og‘zaki ijodining ta’sirini o‘rganadi. Tadqiqotda shoir she’riyatida xalq maqollari, doston obrazlari va xalq qo‘shiqlari motivlarining badiiy-estetik ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, L. O‘sarova *“Abdulla Oripov asarlarida milliy ruh ifodasi”* nomli ilmiy ishida shoirning milliy adabiy merosga bo‘lgan munosabatini tahlil qiladi. Unda Abdulla Oripov asarlarida xalq donishmandligiga asoslangan poetik obrazlar, an‘anaviy timsollar va xalqona ifodalar tizimi chuqur tadqiq qilingan.

Shoir asarlarida xalq og‘zaki ijodidan olingan motiv va obrazlarning badiiy talqinini o‘rganib, ularning poetik tafakkuridagi o‘rni yoritilar ekan, bunda tadqiqotchi Y. Nurjonova va Sh. Abdiyeva o‘zining *“Abdulla Oripov ijodida folklorizmlarning ahamiyati”* nomli maqolasida shoirning xalq og‘zaki ijodiga murojaati, uning asarlarida folklor elementlarining qo‘llanilishi

va badiiy-estetik ahamiyatini o‘rganadi. Tadqiqotda shoirning xalqona ifoda vositalaridan foydalanishi uning ijodiy uslubini boyitganligi ta’kidlangan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Abdulla Oripov ijodida xalq og‘zaki ijodiga asoslangan poetik tafakkur muhim o‘rin tutadi. Xususan, xalq qo‘shiqlari, maqollar, doston obrazlari va xalqona ifoda vositalari shoirning milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan poetik tizimini shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan.

METOD

Ushbu tadqiqotda ilmiy-tahliliy va qiyosiy usullar qo‘llanildi. Avvalo, Abdulla Oripov she‘riyatida xalq og‘zaki ijodining o‘rni ilmiy manbalar asosida o‘rganildi. Birinchi bosqichda she‘riy matn tahlili usuli qo‘llanildi. Bunda Abdulla Oripovning turli yillarda yaratilgan asarlarida xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq elementlarning qo‘llanilishiga ilmiy yondashuv asosida baho berildi. Xususan, folklor motivlari, xalq maqollari, qo‘shiq va dostonlarga xos badiiy uslublar poetik tafakkur shakllanishidagi o‘rni jihatidan o‘rganildi. Ikkinchi bosqichda qiyosiy-tahliliy usul yordamida Abdulla Oripovning ijodiy uslubi bilan xalq og‘zaki ijodi o‘rtasidagi bog‘liqliklar o‘rganildi. Shoirning asarlarida an’anaviy xalq obrazlarining qo‘llanilishi va ularning boshqa zamonaviy o‘zbek shoirlari ijodidagi ifodalari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot davomida manba tahlili usuli ham qo‘llanilib, adabiyotshunos olimlarning ilmiy asarlari va maqolalari asosida shoir poetikasida xalq og‘zaki ijodining o‘rni xolisona baholandi. Shu tariqa, tadqiqotning ilmiy asoslari chuqur tahlil qilinib, mavzu bo‘yicha aniq xulosalar chiqarildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Abdulla Oripov she‘riyatida xalq og‘zaki ijodi elementlari o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lib, ular shoirning individual poetik tafakkuri bilan uyg‘unlashgan. Xalq maqollari, doston motivlari va ramziy obrazlar shoir she‘rlarida bevosita takrorlanmay, aksincha, ijodiy qayta talqin qilinadi va individual falsafiy mazmun bilan boyitiladi.

Birinchidan, xalq maqollarining shoir poetikasidagi badiiy talqini tahlil qilinadigan bo‘lsa, *“Haqiqat yo‘llari”* she‘ridagi

“Ba‘zan yomon ot qolur yaxshi odamdan, hatto.

Qay bir yovuz kimsa yaxshi derlar erta kun.”

satri bunga yorqin misol bo‘la oladi. Shoir bu yerda “Yaxshidan nom qolur, yomonidan dog” maqolining ma’nosini o‘zgartirib, ijtimoiy hayotda ko‘pincha adolatsizlik ro‘y berishini va yaxshilarning qadri har doim ham anglanavermasligini ta’kidlaydi.

Ikkinchidan, shoirning xalq maqollariga o‘ziga xos badiiy yondashuvi uning *“It – vafo demishlar, hayhot”* misolida yaqqol ko‘rinadi. An’anaviy *“It – vafo”* maqoli ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda qayta talqin etiladi. Shoir bu maqolga shubha bilan qaraydi va undagi umumiy haqiqat emas, balki shaxsiy tajribaga asoslangan qarashni ilgari suradi.

“Masalan, it – vafo demishlar, hayhot,

It egalari buni to‘qiganlar, zab.”

Bu yondashuv shoirning poetik tafakkurida xalq maqollarini bevosita qo‘llash emas, balki ularni individual falsafiy qarashlar bilan boyitib, o‘ziga xos badiiy talqinga ega asarlar yaratish tamoyiliga asoslanishini ko‘rsatadi. Bu tahlillarda shoirning maqollarni bevosita emas, balki poetik idrok vositasida takomillashtirib qo‘llashi bilan bog‘liqligini kuzatish mumkin.

Uchinchidan, ramziy obrazlarning poetik tafakkur shakllanishidagi o‘rni ham muhim ahamiyatga ega. Shoirning *“Haj daftari”* turkumidagi *“Ona”* she‘rida xalqona ramz va poetik struktura uyg‘unligi kuzatiladi.

“Qavmimni ranjitib qo‘ymayin, ammo
Tobut yasab kelgan er zoti doim.
Onalar bag‘riga faqat beshik jo,
Hayotbaxsh allalar aytgan, muloyim.” [2,6]

Bu misralarda *“tobut”* va *“beshik”* ramzlari o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilib, xalq og‘zaki ijodidagi falsafiy umumlasmalar bilan bog‘lanadi. Beshik – hayotning boshlanishi, tobut esa hayotning yakunlanishini anglatadi. Shoir ana shu ramzlarni bir-biriga zid qo‘yib, hayotning murakkab va mangu jarayon ekanligini poetik jihatdan ifodalaydi. Abdulla Oripov she‘riyatida xalq donishmandligi va ramziy obrazlar mustaqil poetik mazmun kasb etib, shoirning falsafiy mushohadasi orqali o‘ziga xos shakl kasb etadi. To‘rtinchidan, ijtimoiy va biografik asoslar ham shoirning xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq uslubi shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. “It – vafo demishlar” misolida shoir ijtimoiy adolatsizlik va insoniy munosabatlar murakkabligini ochib beradi. Bunda xalq maqollarining umumiy haqiqat sifatida emas, balki hayotiy tajriba asosida qayta baholanayotganini kuzatish mumkin.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, Abdulla Oripov xalq og‘zaki ijodidan ilhomlanib, uni poetik jihatdan qayta talqin qilish orqali o‘ziga xos badiiy-estetik makon yaratgan. Shu sababli, uning ijodini tadqiq etishda xalq og‘zaki ijodining ta’siri chuqur o‘rganilishi lozim. Bu esa nafaqat shoir she‘riyati poetikasini tushunish, balki umuman milliy adabiyotimiz rivoji uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

XULOSA

Abdulla Oripov ijodida xalq og‘zaki ijodi muhim manba bo‘lib, shoir maqollar, doston motivlari va ramziy obrazlarni ijodiy qayta talqin qilib, ularni o‘z poetik tafakkuri bilan boyitgan. Xalq maqollari va iboralari shoir she‘riyatida bevosita emas, balki yangi badiiy qirralar bilan qayta ishlanib, falsafiy mushohada orqali talqin qilingan. Ramziy obrazlar, xususan, beshik, tobut, it kabi timsollar orqali shoir hayot va insoniy qadriyatlar haqidagi fikrlarini chuqur ifoda etgan. Folklor motivlari poetik tahlil orqali shoir she‘riyatining badiiy-estetik qiymatini oshirgan va milliy adabiyot rivojiga hissa qo‘shgan.

Ijodkor xalq og‘zaki ijodidan nafaqat badiiy uslubiy vosita sifatida, balki ijtimoiy haqiqatlarni yoritish vositasi sifatida ham foydalangan, xalq donishmandligini zamonaviy tafakkur bilan uyg‘unlashtirgan. Shu bois, Abdulla Oripov xalq og‘zaki ijodini ijodiy qayta talqin qilish orqali milliy she‘riyatni boyitgan va o‘ziga xos poetik makon yaratgan. Bu esa uning adabiy merosini chuqur o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulhakimova, B. N. 2022. “Abdulla Oripov she’riyatida xalqona uslub va milliy ruh uyg‘unligi”. O‘zbekiston: til va madaniyat 2(2): 63-71.
 2. Abdulla O. Haj daftari. Hikmat sadolari (ellik hadis). – Toshkent, 1992.
 3. Абдулҳакимова О. Абдулла Орипов адабий-эстетик қарашлари. Фил. Фан. док-ри... дисс автореферат. –Тошкент, 2022.
 4. Nurjanova Y., Abdiyeva Sh. “Abdulla Oripov ijodida folklorizmlarning ahamiyati”// Наука XXI века №4 2020.
 5. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 2001. 4-jild. — 74 b.
 6. Хамдамов А.Н. Абдулла Орипов шеъриятида халқона поэтик тафаккур муаммоси. фил. фан. номзоди... дисс. – Т., 2011.
- Manba: <https://diss.natlib.uz/tanishish/56f64a90-eae3-4de6-88e0-46573784386c>